



## INTERFAOL DARSLARNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

*Kamolova G.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

*O'zbek tili va chet tillar kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, хотира, ta'lim sifati, bilim, axborot vositalari.

**Ключевые слова:** инновации, интерактивный, педагогические навыки, эффективность, дидактическое задание, объем памяти, качество образования, знание, средства массовой информации.

**Keys words:** innovation, interactive, pedagogical skills, efficiency, didactic task, memory, quality of education, knowledge, media.

**Резюме:**

Ushbu maqolada interfaol metodlardan foydalanish va qo'llash, interfaol metodlarning samaradorligi va ularning turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Резюме:**

В этой статье представлена информация об использовании и применении интерактивных методов, эффективности интерактивных методов и их разновидностях.

**Summary:**

This article provides information on the use and application of interactive methods, the effectiveness of interactive methods and their varieties.

Kirish. Interfaol metodlar bu - o'qituvchi hamda o'quvchilar aro o'zaro birgalikdagi harakatdir. "Interfaol" ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "interact" so'zidan olingan. "Inter" bu - o'zaro, "act" - harakatdir. Interfaol metodlarda o'qitish o'quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuv talab etadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta



tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Asosiy qism. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

O'qitishning interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o'qituvchi emas, balki o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchi ham faol bo'lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko'rnishdagi metodlar o'yinlar orqali ularga tushuntirib ularning psixikasiga mos dars jarayonlari tashkil qilinadi. Dars jarayonida bolalarni zeriktirib qo'ymaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars jarayonni tashkil qilinadi. Hattoki, ma'lum bir kitobni o'qiganda, sahifalarida turlicha mazmun kashf etishni ko'rish mumkin. Masalan: L.N.Skatkinning "Metodika" kitobini varaqlaganda, kitobning boshida metodikaning umumiy masalalariga daxldor bo'lgan boblarida muallifning tilida ko'plab metod so'zi uchraydi. Lekin, xususiy masalalariga bag'ishlangan boblarida muallif "metod" so'zi o'rniga "usul" so'zini ishlatilgan.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchining soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi

Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjatlar bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Ulardan:

- juftlikda ishlash;
- korusel;
- kichik guruhlarda ishlash;
- akvarium;
- tugallangan gaplar;
- aqliy hujum;
- daraxt yechimi;
- o'z nomimdan so'zlayman;
- fuqarolar eshituvi;
- rolli o'yinlar;
- press metod;
- o'z pozitsiyasini egallash;
- munozara;
- debatlar;
- katta davra.

Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko'zda tutib, muammoni keltirib, o'quvchilani shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma'lum malakalarga ega bo'lgan holatlarda qo'llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.

Interfaol o'qitishda o'qitish muhiti tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, yaxshi tashkil etilgan o'qitish muhiti:

- O'qish va tadqiqotlarga ko'maklashadi;
- Turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega bo'ladi;
- Ijodkorlik qobilyatiga rag'bat beradi;
- Fikrlar va axborotlar almashinuviga imkon yaratadi;
- Nutqiy rivojlantirishni rag'batlantiradi;
- Ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- Uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- Turli usullar bilan ma'lumot olish uchun resurslarni o'z ichiga oladi;



- Ma'lumotnomalar, lug'atlar, entsiklopediyalar, geografik xaritalar, tajriba o'tkazish uchun turli asboblardan, materiallar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quv materiali mazmuni, nimaga o'rgatilishi, tahlili, motivatsiyasi, o'qituvchi, o'quvchini ketma-ketlikdagi harakatlari ko'zda tutiladi.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda eng ko'p qo'llanadigan interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar. "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari.

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

Moderator -ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

Trener-o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

Tyutor-masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.

Fasilitator-darsda ko'makchi, yo 'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

Mentor-ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

Kouch-ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

Konsultant-maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.

Lektor-nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.

Ekspert - kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

Innovator-yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilish.

Kommunikator-o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

O'qituvchi-mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmuni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.

Menejer- tashkiliy-pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

Spekter- kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

Assistent-mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.

Sekretar-zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.

Texnolog - pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog' liq masalalarni hal etib boradi.

Metodist-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Koordinator-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishnt relalashtrish, muvofiqlashtrish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

O'quvchilar - ta'lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yugorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi - o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.



Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyat lari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent 2010
2. Qurbonov S. S. "Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar va ulardan dars jarayonlarida foydalanish"
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: O'qituvchi, 2004.